

TIL – MILLAT MULKI**Zulfiya Asamatdinova***Berdaq nomidagi QQDU**O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti*

Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlil bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali angelaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rnini beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvda tilning o'rnini ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar.

Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdir. So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda tilimiz himoyasiga o'tlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining "Xamsa" kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi.

Muayyan tilga davlat maqomi berilishi davlatchilik madaniy siyosatining uzviy muhim qismi va millat qadriyatlarini ulug'lash demakdir. O'zbekistonda 1989-yildayoq ittifoqdagi millatlar orasida o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi juda katta siyosiy madaniy hodisa edi. Hozirda ona tilimizga davlat tili maqomi berilganiga 30 yildan oshdi. Bugun nafaqat O'zbekistonda, balki uzoq xorijda ham o'zbek tilini o'rganuvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bu, albatta, ko'ngillarni g'ururga to'ldiradi!

Demak, ona tilimizning mavqeini oshirish borasidagi ulug' niyatlari o'zbek tili va adabiyotini ilmiy o'rganish bilan shug'ullanayotgan filologlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. O'zbek tilini davlat maqomidan endi jahoniy tillar maqomiga ko'tarish, ulug'larimizning ulug' niyatlarini amalga oshirish yo'lida jonbozlik qilish biz ziyolilar uchun ham qarz, ham farz sanaladi.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi sifatida e'tirof etar ekanmiz, dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi.

YUNESCO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6mingga yaqin til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlariga yozuviga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo'ladi. Chunki yangi texnologiyalar rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamonaviy tillardan ko'proq foydalanishga to'g'ri kelmoqda. Bugun internet tilining 84 foizi ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri, avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muomalada bo'lib ma'lum vaqtdan so'ng yo'q bo'lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarining jadallik bilan yo'qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo'qolib ketish xavfida bo'lgan tillarning saqlab qolish yo'lidagi amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyat, urf-odatlarini saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.

Demakki, til – millatning ma'naviy boyligidir. U nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odatini, uning turmush tarzi tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab – quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham har bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng hozir muomalada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo'lib, ularning teng yarmi sakkizta davlat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSH va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. Eng ko'p tilli davlat sifatida Hindiston tan olingan. Bu mamlakatda aholi 845til va lahjada so'zlashadi. Ikkinchi o'rinda esa 600 ta'til va shevada so'zlashuvchi Papua-Yangi Gvineya turadi. Sayyoramizda eng ko'p so'zlashiladigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari

tan olingan. Birinchi o'nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemis, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Jahon tillarining atigi 5 foizi Yevropa qit'asiga to'g'ri kelsa-da "eng ko'p so'zlashuvchi tillarning teng yarmi —ko'hna qit'a" ekani ma'lum bo'ldi. 346 million kishi ingliz tilini ona tili sifatida tan oladi, biroq yana 380 million kishi bu filni ikkinchi ona tili sifatida ko'rishini ma'lum qilgan. Tahlilchilar xitoy va ingliz tillari foydalanish bo'yicha o'z mavqeyini oshrib borayotganini aytishadi. Vaziyatni o'rganayotgan kuzatuvchilarning fikricha, foydalanuvchilar soni bo'yicha ayni damda ingliz tili yetakchilik qilayotgan bo'lsa, XXI asr o'rtalariga borib, xitoy asosiy til bo'lib olishi mumkin. Mavjud tillarning 90% ning har biridan 100.000 aholi foydalanadi. Mana shuning o'ziyoq bu tillarning kelajagi qorong'uligidan dalolat beradi. Bugungi kunda 352 nafar tilda atigi 43 kishi so'zlashar ekan. 44 tildan esa atigi bir kishining foydalanishi aytiladi. Ularning o'limi bilan bu tillar ham yo'qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu tilning 250taning ichida ekani quvonarli, albatta. YUNESCO tomonidan nashr qilinadigan - Yo'qolib ketish xavfi arafasida

turgan jahon tillari atlasida Yevropadagi 50ta, Tinch okeani mintaqasida esa 200ta

til yo'qolib ketish arafasida ekani ta'kidlanadi. Afrikadagi 1400 ta tildan 750 tasi

kelajakda, 300 tasi esa yaqin orada butunlay yo'qolib ketishi haqida bong urilmoqda.

Shu o'rinda o'zimizning jonajon ona tilimiz haqida ham ta'kidlar ekanmiz, u haqida yana shu fikrlarini ham bayon etmoqni joiz deb bildim. O'zbek tili O'zbekistonning asosiy aholisining til hisoblanishi bilan birga qo'shni Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining ayrim viloyat va tumanlariga ham tarqalgan. Afg'onistonning shimoliy viloyatlarida ham ikki millionga yaqin kishi o'zbek tilida so'zlashadi. O'zbek tili dunyodagi 40 taga yaqin yirik tillarning biridir. O'zbek tilining qoraqalpoq, turkman, qozoq, qirg'iz, tatar, ozarbayjon, turk, boshqird, uyg'ur tillari bilan birodar qardosh tillar hisoblanadi. Bu tillar o'zaro shunchalik yaqinki, ularning vakillari har biri o'z tilida gapirganda ham ozmi-ko'pmi bir-birlarini tushuna oladilar. Shuning uchun bir-biriga yaqin bo'lgan bu tillar bitta til oilasiga – turkiy tillar oilasiga birlashadilar.

Turkiy tillardan uyg'ur tili o'zbek tiliga juda yaqin til hisoblanib, o'zbek va uyg'ur tillari turkiy tillarning bir guruhiga – qarluq guruhiga mansubdir. O'zbek tili eng qadimgi tillardan bo'lib, uning XX asrning boshlanishiga qadar bo'lgan davri eski o'zbek tili deb yuritilardi. Buyuk mutaffakkir shoir Alisher

Navoiy eski o'zbek tili adabiy tilida o'zining jahonshumul asarlarini yaratgan. Demokratik – vatanparvarlik adabiyotining Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar, o'g'li kabi namoyondalari ijodi o'zbek tilining yanada rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Eski o'zbek adabiy tilining nafisligi, ixchamligi kabi xususiyatlari hozirgi o'zbek tili meros qilib oldi.

Hozirgi zamon o'zbek tili eng boy tillardan biri bo'lib, unda go'zal badiiy hamda chuqur mazmunli ilmiy asarlar yaratilmoqda. Hamza, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi o'zbek adabiyotining yirik namoyondalari o'zbek tilining bebaho, qudratli xazinasidan keng foydalanganlar. 1989-yil 19-oktabr kuni davlat tili haqidagi masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. Va qariyb bir asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi.

Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea edi. Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, dini va millatidan qa'tiy nazar har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilanib qo'yildi. 1989-yil 21-oktabr o'zbek tiliga rasman davlat tili maqomi berilgach, uning vazifasi va imkoniyatlari yanada kengaydi. Shuningdek, o'zbek tili Rossiya, AQSH, Germaniya, Kanada, Vengiriya, Bolgariya, Hindiston kabi davlatlarda o'rganiladi. Mazkur davlat tadqiqotchilaridan biri rossiyalik filshunos olimi, professor A.M. Kozlyanina – "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" - deya ta'kidlagan.

Xulosa shuki, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat mulki deb bejiz aytilmagan. Agar biz o'z ona tilimizning ko'rkamligi, boyligini, dunyogatarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkamlanadi.